



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA CHET TILLARINI O'QITISHNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY TENDENSIYALAR

Tojiyeva Anora Baxtiyorovna

SamDU doktranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8429582>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 02-October 2023 yil

Ma'qullandi: 06- October 2023 yil

Nashr qilindi: 11- October 2023 yil

KEY WORDS

chet tili o'qitish tamoyili,
psixolingvistik tamoyil, nutq
faoliyatining asosiy turlari,
zamonaviy o'qitish usullari

ABSTRACT

Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarini o'qitishni rivojlantirishning asosiy tendensiyalar chet tilining kommunikativ kompetensiyasini yanada rivojlantirish (nutq, til, ijtimoiy-madaniy, kompensatsion, ta'lim va kognitiv) va boshqa tamoyillari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Ta'lim tarbiya jarayoni didaktik, psixologik, lingvistik, metodik va boshqa qonuniyatlarga amal qiladi. Ularning ayrimlari barcha fanlar uchun umumiy bo'lishi mumkin. Til o'rganish aqliy faoliyat bo'lganligi tufayli uning psixologik asoslari mavjud. Aqliy faoliyat ruhshunoslikda ilmiy jihatdan tekshiriladi. Shu munosabat bilan ingliz tilini o'qitishning psixologik tamoyillarini tadqiq etish ehtiyoji tug'iladi.

Ilmiy manbalarda ingliz tili o'qitishning ikkita psixologik tamoyillari ishlab chiqilgan. Psixologik tamoyillar «verbalizatsiya» (o'zga til amalda faqat og'zaki nutq orqali o'rganiladi) va «korrelatsiya» (ingliz tili materialining muayyan chegarasi aniqlanadi, birinchi galda nutq malakalarini hosil qilish uchun mo'ljallangan til birliklari majmuyi shakllanadi) nomlarini olgan.

Ingliz tilini o'qitishning tilshunoslik asoslari birmuncha tadqiq etilganligiga qaramay, metodika fanida ingliz tili o'qitishning lingvistik tamoyillari masalasiga kam e'tibor qaratilgan. Metodika tamoyillari mohiyatini yoritishda psixologik va lingvistik qonun-qoidalarga suyanib ish ko'rildi va quyidagi psixolingvistik tamoyillar umumlashtirildi:

1. O'quvchilarning ingliz tili o'rganish, o'zlashtirishga motivatsiyasi (ichki turtkisi)ni oshirish.
2. Mashg'ulotlarda o'quvchilarning yoshiga mos jismoniy harakatlarini rag'batlantirish.
3. O'quvchilarni ona tili va o'rganilayotgan chet tilning o'xshash jihatlaridan xabardor etish.
4. O'quvchilarning vositachi til (metatil) tajribalarini rivojlantirish.
5. O'quvchilarni ona tili va o'rganilayotgan chet tilning aloqadorligidan foydalanishga o'rgatish.
6. O'quvchilarni o'rganilayotgan ingliz tili tuzilmasi bilan umumiy tanishtirish.
7. Individual yondashish, ya'ni o'quvchilarning xos xususiyatlari (har qaysi

o'quvchining tabiati, nimalarga qodirligi, qiziqishi, kim bilan do'stlashishi, nimalarga salbiy munosabatda bo'lishi)ni inobatga olib psixo-pedagogik tadbirlar olib borish.

Chet tili fanining umumiylikini ta'minlash konsepsiyasida quyidagi uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarini o'qitishni rivojlantirishning asosiy tendensiyalar belgilab berilgan.

- ta'lim sohasi rivojlangan mamlakatlarning me'yorlarini belgilash tajribasini o'rganish va milliy xususiyatlarni hisobga olgan chet tili o'rganish me'yorlarini takomillashtirish;

- tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari vama'likalarining rivojlanishiga alohida urg'u berish;

- chet tili fanining davlat ta'lim standarti talablarini ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash;

- chet tili fani bo'yicha uzluksiz ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini amaliyotga tatbiq etish;

- chet tili fani mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, o'qitish metodi kasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonini individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

- chet tili fanini boshqa umumta'lim fanlari bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash va til o'rganuvchilarni chet tilini real hayotda ishlata olishga yo'naltirish;

- til o'rganuvchilarda mustaqil hayotda qo'llash imkoniyati bo'lgan chet tili fani savodxonligini, XXI asr ko'nikmalarini, tanqidiy va kreativ fikrlash, pragmatic kompetensiyalarni, madaniy xabardorlik va raqamli savodxonligini shakllantirish;

- imkoniyati cheklangan bolalarga chet tillarini o'qitishda inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish. New Fly High da o'quvchilarga to'rt nutq faoliyati turlari: o'qish, tinglab tushunish, gapirish va yozuvni rivojlantirishga yordam berish maqsad qilib olingan. Darslikda zamonaviy kommunikativ Ingliz tilini o'qitishga alohida urg'u berilgan, shuning uchun ilgari nazardan chetda qoldirilgan gapirish va tinglashga katta e'tibor qaratilgan. Albatta o'quvchilarga Lug'at, Grammatika va Talaffuz bo'yicha yaxshi bir poydevor kerak, shuning uchun bular ham muntazam ravishda rivojlantirilib borilgan. New Fly High da lug'at mavzular bo'yicha tanlangan, grammatika esa, muloqotning tarkibiy qismi sifatida o'rgatilgan. 5-sinf darsligida dastlabki tarjima malakalarini muntazam ravishda rivojlantirib borishga e'tibor qaratiladi. Bu sinfdan tarjima ingliz va ona tilidagi yangi so'z va so'z birikmalarni taqqoslash va farqini ko'rsatish uchun ishlatiladi. New Fly High va Siz foydalangan boshqa bir darsliklar orasidagi asosiy farq shundaki, New Fly High da til o'qitishning o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuviga urg'u berganligidadir.

New Fly High darsliklarida o'quvchilarga

O'qish sohasida:

-har xil uslubdagi haqiqiy matnlarni o'qing: publitsistik, badiiy, kommunikativ vazifaga qarab o'qishning asosiy turlaridan (kirish, o'rganish, qidirish / ko'rish) foydalanish.

Yozish sohasida:

-shaxsiy xat yozing, anketani to'ldirish, o'zingiz haqingizda ma'lumotlarni shaklga yozma ravishda qo'yish;

-o'rganilayotgan tilning mamlakatida/mamlakatlarida qabul qilingan, chet tilidagi matndan ko'chirma olish;

-olingan bilim va ko'nikmalarni amaliy faoliyatda qo'llash uslub va kundalik hayot uchun:

-ta'lim va o'z-o'zini o'qitish uchun zarur bo'lgan ma'lumotni chet tilidagi manbalardan (shu jumladan Internet orqali) olish;

-kelajakdagi kasbiy faoliyatni tanlash imkoniyatlarini kengaytirish;

-jahon madaniyati qadriyatlarini, madaniy merosini va boshqalarning yutuqlarini o'rganish mamlakatlar; xorijiy mamlakatlar vakillarini madaniyat va yutuqlar bilan tanishtirish.

Texnologiya rivojlanayotgan bir davrda biz chet tilini o'rganuvchilarni qiziqтира olish, ularning bilimlarini boyitishda innovatsion texnologiyang o'rni beqiyos deb ayta olamiz. Xulosa qilib aytganda, chet tillari darslarida innovatsion va zamonaviy texnologiyalardan va usullardan foydalanish natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash va o'ylash qobiliyatlari rivojlanadi, nutq ravonlashadi hamda tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Rivojlanayotgan mamlakatimizda vat ta'lim tizimi fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxslarni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar edi. Har bir chet tili darsi madaniyat chorrahasi, muloqot amaliyoti hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Axmedova Odinaxon Inomovna.- Ingliz tilini o'qitish va o'rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.-Oriental renaissance innovative, educational, natural and social sciences-2022 22
2. O'. Hoshmov, I. Yoqubov.-“ Ingliz tili o'qitish metodikasi”(o'quv qo'llanma) Toshkent: " Sharq" nashriyoti
3. Zayniddin Sanaqulov, Baxromjon Jo'raboyev. Chet til o'qitish metodikasida zamonaviy metodlar, 2021

INNOVATIVE
ACADEMY